
ELEKTR ENERGIYASI SIFATI YANADA YAXSHILANMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanida elektr ta'minoti korxonasi tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan hududlar kesimida tegishli reja-jadvallar ishlab chiqilib, mukammal va joriy ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlarining oldini olish, eng muhimi, iste'molchilarni barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, bugun "Mehnatobod" MFYga 97 ta temir-beton tayanchlari yetkazildi. Xozirda yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish ishlari bajarilmoqda.

2023-07-26 17:15:38